



BADIIY ASARLARDA ATOV VA SO‘Z GAPLARINING QO‘LLANILISHI (“YULDUZLI TUNLAR” ROMANI ASOSIDA)

Yo‘lchiyeva Odina Alisher qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani asosida atov va so‘z gaplarning mohiyati ochib berilgan. Atov va so‘z gaplarning asarda keltirilgan ma’nolari ilmiy nazariy tahlil etilgan. Bundan tashqari, yozuvchi romanidagi mavzuviy g‘oyaga ham urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: *atov gap, so‘z gap, roman, asar, tahlil, satr, tarixiy nom, tasvir, mohiyat, sinonim.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕСТОИМЕНИЙ И СЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация: *В данной статье раскрывается сущность существительных и словосочетаний по мотивам романа «Звездные ночи» народного писателя Узбекистана Пиримкула Кадырова. Значения прилагательных и предложений, приведенные в работе, анализируются с научной точки зрения. Кроме того, подчеркивается и тематическая идея романа писателя.*

Ключевые слова: *именное словосочетание, словосочетание, роман, произведение, анализ, строка, историческое имя, образ, сущность, синоним*

USE OF PRONOUNS AND WORDS IN ARTISTIC WORKS

Abstract: *This article reveals the meaning of nouns and phrases based on the novel "Starry Nights" by Pirimkul Kadyrov, a folk writer of Uzbekistan. The meanings of adverbs and phrases presented in the work have been analyzed scientifically and theoretically. In addition, the thematic idea of the writer's novel is also emphasized.*

Key words: *noun phrase, phrase, novel, work, analysis, line, historical name, image, essence, synonym.*

Badiiy asarlarda atov va so‘z gaplarga juda ko‘p marotaba duch kelishimiz mumkin. Ayniqsa, ularni o‘z o‘rnida qo‘llash juda muhim va so‘z mahoratini ham talab qiladi. Mana shunday so‘z mahoratiga ega bo‘lgan yozuvchilardan biri Pirimqul Qodirovdir. Uning o‘lmas asari hisoblanmish “Yulduzli tunlar” romanida esa atov va so‘z gaplarning o‘z o‘rnida, shu bilan birga, romandagi ma’no-mohiyatni ochib berganligini ko‘rishimiz mumkin. “Atov gap – so‘zlovchining ko‘z o‘ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni



gavdalantirishga, xotira yoki xayolida ular bilan aloqador voqea-hodisani tiklashga xizmat qiluvchi vosita. Atov gap bitta soʻzdan iborat boʻlishi ham mumkin, aniqlovchi bilan kengayib kelishi ham mumkin.”[2, 67] Quyidagi misollar orqali asarda keltirilgan atov gaplarni koʻrib chiqamiz:

Xazonrezgilik payti Hirot bogʻlariga suv beradigan Hiriyrud daryosi va Injil anhorining qirgʻoqlariga zaʼfaron yaproqlar toʻkilgan.[1, 280]

Xazonrezgilik payti kengaygan atov gap boʻlib, asarda kuz fasli kelganligini bildiradi, yaʼni qahramon kuz faslini, unda sodir boʻladigan xazonrezgilik payti orqali tasvirlamoqda. Asarda Bobur Alisher Navoiyni koʻrish uchun Hirotga yoʻl oladi. Chunki uzoq vaqtdan buyon u bilan faqat xat orqali yozishib turgan edi. Keyinchalik Navoiyning yoniga oʻzi borishga qaror qiladi, lekin Bobur yetib borguncha Navoiy vafot etadi.

Milodiy 1494-yilning yozi. Fargʻona vodiysining osmoniga chiqqan quyruq bulutlar kun boʻyi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi.[1, 4]

Milodiy 1494-yilning yozi ham kengaygan atov gap hisoblanib, asarning kirish qismidir va yozuvchi ham voqealar rivojini aynan shu davrdan boshlanganini koʻrishimiz mumkin. Bu payt Bobur oʻn bir yoshda boʻlib, otasi Umarshayxni “ Abu Said Mirzo oʻgʻli Umarshayx (1455-1494) umri davomida bir qancha viloyatlarda hukmronlik qildi: Kobul, Fargʻona, Toshkent, Sayram, Xoʻjand, Oʻratepa” [4, 11] oʻlimidan bir yil oldingi voqealar bilan tasvirlanadi. Bu vaqtda Bobur Andijonda taʼlim olib yurgan edi.

Kechki payt. Samarqanddan besh-olti nafar muridni ergashtirib, Xoʻja Yahyo ham chiqib keldi.[1, 192]

Bu satrdagi atov gap **kechki payt** boʻlib, kengayib kelmoqda. Shu bilan birga atov gap aynan bu voqealar rivoji qaysi vaqtga tegishli ekanligini ham koʻrsatmoqda. Movaunnahrning poytaxti Samarqandni imom Xoʻja Yahyo Shayboniyxonga “Uygʻur qavmidan boʻlgan Muhammad Shayboniy 1451-yilda tugʻilgan. Otasi erta vafot etgach, bobosi Abulxayrxon uning tarbiyasiga maʼsul boʻlgan” [4, 6] ochib berib, egallashi uchun sharoit yaratib berdi va shu yoʻl bilan u Shayboniyxonga oʻzining sadoqatini koʻrsatmoqchi edi.

Artof jimjit. Uzoqdan xoʻrozning birinchi qichqirigʻi eshitildi. Osmon ola bulut.[1,202]

Satrdagi kengaygan atov gap - **atrof jimjit**. Bu atov gap endi quyosh chiqayotgani va yangi kun boshlanayotganini koʻrsatmoqda. Bu payti Bobur oʻzining yurtidan quvilib, togʻ-u toshlar orasida oz navkarlari bilan yurgan edi. Unga bir viloyat hokimi kelib, dam olishini soʻragan edi, ammo Boburda shubxa bor, chunki bu Shayboniyxonning qopqoni boʻlishi ham mumkin edi-da.

Asad oyi kirdi. Samarqand atrofdagi bogʻlarda mevali daraxtlarning shoxlari yetilgan hosildan egilib, yerga salom bera boshladi.[1, 232]

Asad oyi ham kengaygan atov gapdir. Bu yerdagi atov gap daraxtlar hosilga kiradigan paytni, yaʼni yoz fasli kelganligini bildirmoqda. Bu payti Bobur jangda yengilib, Samarqandda qamal ostida edi. Ular besh oydan beri ochlikdan qiynalishar, yashil bargga burkangan shoxlarda esa bir dona boʻlsa ham meva yoʻq.



Toshkent... O'n besh-yigirma yildan beri urushning sovuq nafasi tegmagan bu shahar Samarqandga nisbatan osuda hayot kechirmoqda edi.[1, 242]

Bu yerda **Toshkent** atov gap hisoblanadi. Bu yerdagi atov gap esa joy nomini bildirmoqda va shu orqali qahramon Toshkentda bo'layotgan voqealarni tasvirlash uchun ushbu atov gapni qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Boburga Samarqanddan chiqishga ruxsat berildi, ammo Xonzoda begim evaziga. Shayboniyxon Xonzoda begimni xotinlikka oldi. Ular najot topa olamagach Samarqandni tashlab, Toshkent tomon yuzlandilar. Toshkent juda osuda edi. Ammo Boburning maqsadi boshqa. U tog'asi Jonibek Sultonni Shayboniyxondan ogohlantirish uchun kelgan edi. Afsuski, tog'asi uni mensimay, gaplariga quloq solmadi.

Avji bahor. Farg'ona vodiysi yashil libosda.[1, 267]

Avji bahor kengaygan atov gapdir. Shu bilan birga, yozuvchi o'sha paytdagi tabiat ko'rinishi va undagi o'zgarishlarni, ya'ni bahordagi yam-yashillikni tasvirlab o'tganligini ham ko'rishimiz mumkin. O'sha payti Bobur Isfaradan So'x tomon yuzlangan edi. Ular yana tog' oralab yurishga majbur. Tog'lardan esa Farg'ona, Andijon, Toshkent ham ko'rinib turar edi. So'xda Ahmad Tanbalga duch kelishdi. Ahmad Tanbal Boburga xiyonat qilib, Shayboniyxon tomonga o'tib olgan edi. O'sha paytda Bobur o'z qo'llari bilan sovg'a qilgan qilichidan jarohat oladi va O'shda bir necha kunlar davomida davolanadi.

Tun. Atrofdagi o'tovlar jim, hamma uyquda.[1, 274]

Bu satrda **tun** atov gap hisoblanib, butun mavjudot uyqudaligi hamda qorong'u, zulmatga cho'mgan tunda Boburga sodiq va suyangan bir navkari Tohir uning oxirgi umidini uzadigan xabar olib keladi. Bu esa Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritganligi edi. Endi esa Bobur o'z yurtidan ayrilib, Hindikush va Himolay tog'lari tomon yo'lga chiqadi.

"Bir so'z "qotib qolgan" birikma shaklida bo'lib, boshqa so'z bilan kengayish imkoyatiga ega bo'lmagan gap so'z-gap deyiladi. So'z-gap tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabi ma'nolarni ifoda etib, ular matn bilan bog'liq bo'ladi." [2, 69] Quyida so'z-gap va uning turlariga bir nechta misollar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin:

- *Yo'q!* – dedi. – Meni desang qo'rg'onga borma! [1, 5]

Bu yerdagi **yo'q** so'z-gapi butun satrdagi inkor ma'noni anglatadi va bu suhbat esa Tohir hamda Robiya orasida bo'lib o'tadi. Endi yurt notinch bo'layotgan paytda ikki sevishgan xavotirga tushishadi. Shunda Robiya Tohirga to'y uchun yordan berishni istab, ushbu satrni aytadi.

- *Ha, rost.* Toshkent xoniga bizning podshomiz kuyov bo'ladir. [1, 10]

Ha so'z-gapi esa tasqiqlash ma'nosida kelmoqda. O'sha kuni Fazliddin me'mor jiyani Tohirlarnikiga qochib, kelgan bo'ladi. Chunki ularga urush xavf solayotgan edi. Satrda esa gap Toshkent xoni Jonibek Sulton va Andijon xoni Umarshayx haqida gap ketmoqda. Umarshayx mirzo Nodirabegimga uylanib, Toshkent xoniga kuyov bo'lgan. Endi urush bu urush barcha qarindoshlar orasida sodir bo'lmoqchi edi.

- *Mayli, boring, arz qiling!* – dedi. [1, 17]



Bu yerdagi soʻz-gap rozi-rizolik maʼnosini bildirib kelmoqda va bu satrda mulla Fazliddin va dorugʻa oʻrasida suhbat ketadi. Meʼmor Fazliddin Ahmad Tanbaldan arz qilib kelgandi. Chunki Ahmad Tanbal meʼmordan Xonzoda begimni surʼatini chizib berishni soʻraydi, ammo bu davrda esa odam surʼatini chizish taʼqiqqlangan edi. Oʻsha kecha Ahmad Tanbal meʼmorning uyini ostun-ustun qilib tashlaydi va uning sirli sandigʻini ham buzadi, chunki mulla Fazliddin Xonzoda begimda koʻngli borligini bilib, surʼati ham boʻlsa kerak deb oʻylaydi.

- *Qulluq. Endi mening dardimni tushingandirsiz?* [1, 176]

Bu satrdagi **qulluq** soʻz-gapi mamnunlik maʼnosini anglatib kelmoqda, yaʼni bu rahmat soʻz-gapi bilan ham sinonimlik hosil qila oladi. Suhbat Bobur va uning birinchi xotini Oysha begim oʻrtasida oʻtadi. Ayni paytda Boburning ukasi Jahongir mirzoni aynitishib, Boburga qarshi qilishadi va davlatni ikkiga boʻlishlarini xohlashadilar. Nafaqat bu muammo balki Bobur Ahmad Tanbal va Ali Doʻstning ham xiyonatini sezib qolgan boʻladi.

- *Minnatdormiz! – dedi. – Amirzodam bilan diydor koʻrishib, boshimiz osmonga yetdi.* [1, 214]

Minnatdormiz soʻz-gapi esa mamnuniyat va shu bilan birga, hurmat maʼnosini ham bildirib kelmoqda, chunki oʻsha davrlarda podshohga, hatto onasi ham hurmat bilan gapirishgan. Bu paytlarda Bobur Samarqandni Shayboniy qoʻlidan ozod qilib, oʻzi hukmronlik qilayotgan edi. Onasi va xotini Oʻratepaga joʻnatib yuborgan edi. Endi oradan olti oy oʻtib, ular diydor koʻrishishdi. Nodirabegimdan ham koʻra Oysha begim koʻproq yoʻl azobidan qiynalgandi.

- *Xush kelibsiz, Mirzam! Koʻp otashin boʻlmang.* [1, 245]

Bu yerdagi soʻz-gap, odatda, mehmon yoki uyga kirib kelgan insonlarga nisbatan hurmat maʼnosida ishlatiladi. Bobur Toshkentga, Jonibek Sulton, yaʼni togʻasini ogohlantirishga borgan edi. Shayboniyxondan yengilgan Boburni togʻasi uni xushlamay qarshi oldi va ogohlantirishiga ham qaramay, unga ishonmadi. Keyinchalik esa Toshkent ham Shayboniyxon qoʻliga oʻtib ketadi.

- *Labbay, – deb salom berdi.* [1, 280]

Labbay soʻz-gapi esa soʻroq maʼnosida, yaʼni kimdir chaqirganda yoki yumush berganida “men tayyorman, nima qilishim kerak?” degan maʼnoni ham anglatadi.

Bobur va uning sanoqli qoʻshini Xurosonga keldilar, ammo Bobur yetib kelgunicha Alisher Navoiy vafot etgan edi. Bu ulkan va adogʻi koʻrinmaydigan yoʻlga Oysha begim chidolmasligini va Boburdan bir marotaba boʻlsa ham roʻshnolik koʻrmagani vajidan u bilan ajrashib, Toshkentga qaytdi. Bu suhbat esa Tohir va Xurosonga borib qolgan togʻasi Fazliddin oʻrtasida edi. Ular necha yillardirki, mana endi ushrashishdi.

- *Afv eting, bek janoblari.* [1, 285]

Bu yerdagi **afv eting** soʻz-gapi kechirim soʻrash maʼnosida ishlatilgan boʻlib, yozuvchi oʻsha davrning koʻrinishini gavdalantirish uchun bu sinonim soʻzni qoʻllagan. Tohir togʻasi bilan xayrlashayotganda, unga oʻzining otini berdi, chunki uning uyi uzoq ekan. Shu payti oʻzi otsiz, qoʻlida ishlaydigan navkari otda turganini koʻrib, tanbeh berdi. Shunda navkar xijolat boʻlib, uzur soʻraydi. Bu vaqtda Tohir endi navkar emas, aksincha, janobi beklardan edi.



- *Xayr, bu gal ham Xudo o'zi asrasin! – deb Bobur Sultonning yo'l ko'rsatuvchi bo'lishiga rozi bo'ldi.*[1, 308]

Xayr so'z-gapi biror inson ketishdan oldin aytadigan “qotib qolgan” so'zdir. Bobur shu payti o'z jonini va boshqalarning jonini juda katta xatarga qo'yadi. Chunki Kobulga borish uchun Hindikush tog'idan o'tish kerak edi. Buning ustiga qish, tog'ni qor qoplagan. O'sha yerdagi faqatgina bir Sulton ismli yigit yo'l boshchilik qilishga rozi bo'ladi, chunki boshqa aholi bu vaqtda tog'dan o'tishni o'z joniga qasd qilish bilan teng ko'rishadi.

- *Rahmat, hazrat begim, biz sizdan behad minnatdormiz!*[1, 406]

Rahmat so'z-gapi esa minnatdorlik ma'nosida qo'llaniladi, shu bilan birga yozuvchi shu bir so'zni qo'llash orqali butun satrdagi mohiyatni ham ochib bermoqda. Bu paytda Xonzoda begim Shayboniy qarorgohidan qochib kelgan, hatto bir farzandi Xurramdan ham ayrilib qolgan edi. Uning yoshlikdan ko'ngli bo'lgan mulla Fazliddin bir kuni o'g'li Alovuddin bilan ish yuzasidan kelganda uchrashib qolishadi. Afsuski, bu ikki qalb bir-birlaridan uzoq bo'lganliklari uchun eski xotiralarni yodga solib, gaplashishadi. Xonzoda begim ularga pul beradi, chunki oilasi juda qiynalib qolgan bo'ladi. Shunda Fazliddinning o'g'li hazrat begimga rahmat aytadi.

- *Barakallo! Unday bo'lsa, sizni Hindistonga, albatta olib borurmiz..*[1, 407]

Bu yerdagi so'z-gap maqtov ma'nosida kelmoqda. Bobur bu yerda o'g'lining orzusini eshitib ham mamnun bo'lganini va maqtaganini ko'rishimiz mumkin.

Satrdagi Mohim begim va Bobur o'rtasida suhbat ketadi. Ular ayvonda nonushta qilib, o'tirganda kenja Hindol o'g'li va yagona qizi Gulbadan kirib kelib, salo berishadi. Shunda Hindol Hindistonga borishi va yo'lbars ovlash orzusini aytadi, ular yosh bo'lishiga qaramay, biri botir, ikkinchisi esa kitobga o'ch edi. Mohim begim Boburning birinchi, suyuqli xotini edi, undan Humoyun ismli bola tug'ilgan. Afsuski, shariat bo'yicha o'sha davrda uch xotinlik joriy qilingan edi. Uning ikkinchi xotinidan Komron va Askariy tug'ilgan, Bobur ularni majburan olgan. Uchinchi xotinidan esa Hindol va Gulbadan begimlar edi. Ular orasida faqat Komron va Askariy qolgan bolalar bilan yaxshi chiqishmas edilar, chunki onasidan shu o'rgangandilar.

- *Bir savolga ijozat bering, -dedi.*

- *Marhamat.*[1, 416]

Marhamat so'z-gapi rozilik ma'nosini anglatmoqda hamda ha, mayli kabi bir qancha so'z-gaplar bilan ham sinonim bo'ladi. Bu davrda Bobur Hindistonni egallash uchun shay edi. Shuncha urushlarda Shayboniyxonga yutqazib, tolg'ama uslidan foydalanish g'alaba qilishning eng asosiy usuli ekanligini tushungandi. , “Bobur Hindistonni egallash uchun yurish boshlaydi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida afg'onlarning lo'diylar sulolasidan bo'lgan Ibrohim Lo'di hukmronlik qilar edi va u 1526-yil 21-aprelda Bobur qo'shiniga qarshi Panipat jangida mag'lub bo'lib, halok bo'ldi.” [3, 74]. Bu yerda shu masalda Mohim begim bilan choy ustida suhbatlashmoqda edilar.

Pirimqul Qodirovning navbatdagi eng mashhur asari “Yulduzli tunlar” romani Temuriylar sulolasining so'nggi vakili Zahiriddin Muhammad Boburning hayotiga bag'ishlangan bo'lib, unda atov va so'z gaplarning qo'llanilganligini ko'rib chiqdik. So'ng so'z o'rnida shuni aytish mumkinki, yozuvchining qo'llagan har bir atov va so'z gaplari



asarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu soʻzlar orqali taʼsirchanlik bilan birga romandagi obrazlarning ichki kechinmalarini yaqqol aniqlashimiz mumkin. Shu bilan birga, yozuvchining kuchli va boy soʻz mahoratiga ega ekanligiga yana bir bor amin boʻlamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Qodirov. P. Yulduzli tunlar –Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2021. –B. 4, 5, 10, 17, 176, 192, 202, 214, 232, 242, 245, 267, 274, 280, 285, 308, 406, 407, 416.
2. Qodirov M. Ona tili. -Toshkent: Choʻlpon nomidagi NMIU. 2019. –B. 67, 69.
3. Farmonov R. Jahon tarixi. -Toshkent: Choʻlpon nomidagi NMIU. 2019. –B. 74.
4. Joʻrayev Oʻ. Oʻzbekiston tarixi. -Toshkent: “Oʻqituvchi” NMIU. 2019. –B. 11, 6.